

ABZALOVA Farida,

O'zbekistom xalqaro islom akademiyasi
Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA
kafedrası tayanch doktoranti
feridevard@mail.ru

MAHMUD ZAMAXSHARIY “NUKATU-L-I'ROB” ASARINING TUZILISHI

СТРУКТУРА ПРОИЗВЕДЕНИЯ МАХМУДА ЗАМАХШАРИ «НУКАТУ-Л-ИЪРАБ»

STRUCTURE OF MAHMUD ZAMAKHARI'S WORK “NUKATU-L-I'RAB”

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zamaxshariyning hayoti va ilmiy faoliyati qisqacha bayon qilingan. Shuningdek, allomaning “Nukatu-l-i'rob” asari haqida ma'lumot keltirilgan. Maqola muallifi allomaning ilmiy merosi hisoblangan muhim asari tuzilishini tahlil qilgan. “Nukatu-l-i'rob” asarining tilshunoslikda tutgan o'rni va uning bugungi kundagi ahamiyati haqidagi zaruriy ma'lumotlarni bergan. Shuningdek, asarning dunyo kutubxonalarida saqlanayotgan nusxalari haqida ham to'xtalib o'tgan.

Kalit so'zlar. Zamaxshariy, Jorulloh, aruz ilmi, nukta, nukat, muxaffafa

Аннотация. Статья посвящена анализу научного труда Махмуда Замахшари «Нукат аль-Иъраб». Автор рассматривает структуру, методологию и теоретические основы этого произведения, выявляя его новаторские идеи и вклад в развитие арабской грамматики. Особое внимание уделяется анализу научного наследия Замахшари в контексте современных лингвистических исследований. Статья также затрагивает вопрос о том, как идеи Замахшари были восприняты его современниками и последующими поколениями ученых.

Ключевые слова. Замахшари, Джарулла, Аруз, нукта, нукат, мухaffафа

Annotation. This article offers a concise overview of Zamakhshari's life and scholarly contributions. It delves into his influential work “Nukatu-l-i'rab,” examining its significance as a cornerstone of Arabic linguistics. The article highlights the work's role in shaping contemporary linguistic studies and discusses the availability of its copies in global libraries.

Keywords. Zamakhshari, Jorullah, Aruz science, nukat, nukat, mukhafafa

KIRISH

Yoshlarimizga zamonaviy ta'lim-tarbiya bilan birgalikda, qon-qonimizga singgan muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini to'g'ri tushuntirib berishimiz, ularni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash haqida jiddiy o'ylashimiz lozim.

Dunyoga Buxoriylar, Beruniylar, Termiziylar, Moturidiylar, Xorazmiylardek buyuk alloma va aziz avliyolarni bergan jonajon Vatanimiz yoshlari ulug' ajdodlariga munosib bo'lib ulg'ayishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur [1:264].

Buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosini o'rganish va undagi yuksak insoniy fazilatlarini hayotga tatbiq etish yosh avlodni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday allomalardan biri Mahmud Zamaxshariy bo'lib, uning boy ilmiy merosini to'liq tadqiq etish bugungi kunda ham dalzarb ahamiyat kasb etmoqda.

ASOSIY QISM

Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng boshqa buyuk ajdodlarimiz qatorida chuqur hurmat va mehr bilan “Ustozu-l-arab va-l-ajam” (“Arablar va g'ayri arablar ustoz”), “Faxru Xavorazm” (“Xorazm faxri”) kabi sharaflil nomlar bilan shuhrat qozongan Mahmud Zamaxshariyning hayoti hamda ilmiy merosi ilmiy asosda o'rganila boshlandi.

Ko'hna Xorazm tuprog'ida voyaga yetib, jahon madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan ulug' olim Zamaxshariyning nomi dunyoga mashhurdir. Uning o'lmas asarlari va u haqida

yozilgan ilmiy asar hamda maqolalarni olamning hamma burchaklaridagi kutubxonalarda uchratish mumkin. Ilmu fan xazinasiga bebaho durdonalar qo'shgan bu buyuk zot bilan O'rta Osiyo xalqlari har qancha faxrlansalar ham oz [2:3].

Abul Qosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy hijriy 467-yil rajab oyining 27-kuni (milodiy 1075-yil 19-mart) Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tavallud topgan. Hijriy 538 yil Arafa kechasi Jurjoniya (Urganch)da 71 yoshida vafot etgan [3:3]. U Makkai mukarramada yashagan paytida iskandariyalik shogirdi Shihobuddin Ahmad ibn al-Husayniy al-Molikiyga yo'llagan maktubida o'zi haqida: "Men Mahmud ibn Umar ibn Muhammad Ahmad al-Xorazmiyman, keyin az-Zamaxshariyman. Xorazmnini katta bir qishlog'i – Zamaxsharga mansubman. Zamaxshar – tug'ilgan yurtimdir", – deb yozgan [4:284].

Zamaxshariy haqidagi ma'lumotlar, asosan o'rta asr arab manbalarida keltirilgan. Otasi unchalik badavlat bo'lmasada, savodli, taqvodor, diyonatli kishi bo'lgan va aksar vaqtini Qur'on tilovati-yu namoz o'qish bilan o'tkazib, Zamaxshardagi bir masjidda imomlik ham qilgan. Allomaning onasi ham taqvodor, dindor ayollardan hisoblangan.

Zamaxshariy o'z davrining zabardast olimlaridan biri bo'lib, fanning turli sohalariga oid yetmishga yaqin asar yozgan, shulardan ba'zilarigina bugunga qadar yetib kelgan, xolos. Allomaning asarlari ro'yxati turli manbalarda turlicha keltiriladi. Nemis sharqshunos olimi K.Brokkel'man o'zining — "Arab adabiyoti tarixi" nomli asarida Mahmud Zamaxshariyning 31 ta asari haqida ma'lumot bergan bo'lsa, doktor Ahmad Muhammad al-Xufiy o'zining "Az-Zamaxshariy" nomli risolasida uning 48 ta asari borligini aytib o'tadi". Akademik A.Rustamovning "Mahmud Zamaxshariy" kitobida allomaning 39 ta asari haqida ma'lumotlar bor". B.Z.Xolidov o'z maqolasida Zamaxshariyning 55 ta asar yozganligini ta'kidlaydi». Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosining yana bir tadqiqotchisi U.Uvatov "Nozik iboralar" nomli kitobida allomaning 34 ta asariga oid ma'lumot bergan [5:5].

S.Saidjalolov "Mahmud Zamaxshariyning "Ruusul-masoil" asarida hanafiy mazhabi

talqini" mavzusidagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi avtoreferatida allomaning 91 ta asari borligini qayd etadi [6:7].

Mahmud Zamaxshariy merosi asrlar davomida G'arb va Sharq olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Nemis olimlari K.Brokelman, S.Shmidtke, ingliz tadqiqotchilari Ch.Xorn, R.Jekson, ozar olimi Z.M.Buniyatov, rus olimi S.M.Prozorov, tatar olimlari B.Z.Xolidov va A.B.Xolidovlar o'z tadqiqotlarida Zamaxshariy ijodi va merosi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etganlar.

Sharqda Sam'oniylar, Yoqut Hamaviy, Ibn Xallikon, Ibn Qutlug'beqa, Suyutiylar, Feruzobodiy, Taftazoniy, Toshko'prizoda, Hoji Xalifa, Abdulhay Laknaviy kabi muarrixlar Zamaxshariy hayoti va merosiga taalluqli ma'lumotlarni tadqiq etganlar.

Arab olimlaridan Jurji Zaydon, Ahmad Muhammad al-Xudiy, Ali al-Bajoviy, Bahija Boqir al-Husniy, Muhammad Abul fazl Ibrohim, Husni Abduljalil Yusuf, Ibrohim as-Samaroiy, Muhammad Bosil Uyun as-Sud va boshqalar alloma ijodini har tomonlama o'rganishga harakat qilganlar [5:6].

Mahmud Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalarini, jumladan, arab tilining sarf-u nahvini, adabiyotshunoslik, lug'atshunoslik, tilshunoslik, geografiya, aruz, mantiq, diniy ilmlar, Qur'on tafsirini mukammal egallagan. Tilshunoslikka oid bir qancha asarlari olimning ilmiy merosining salmoqli qismini tashkil etadi [7:136].

Allomaning arab grammatikasining nozik jihatlarini ochib beruvchi asarlaridan biri "Nukatu-l-i'rob fi-l-g'arib i'rob fi-l-Qur'oni-l-karim" nomli asari bo'lib, unda Qur'oni karim oyatlarinig nozik jihatlarini ochish orqali o'quvchisiga grammatik mavzular bayon qilinadi. Mazkur asar qo'lyozma holatda bo'lib, Zamaxshariy uni "Nukatu-l-i'rob fi g'aribi-l-i'rob" nomi bilan atagan. Tarjima va tabaqot olimlarining ba'zilar o'zlarining kitoblarida bu nomga "Fi Qur'oni-l-karim" iborasini qo'shganlar. Mazkur qo'lyozmaning yagona nusxasi Qohiradagi "Doru-l-kutub va-l-vasoiqi-l-qavmiya" kutubxonasinig qo'lyozmalar fondida 898-raqam ostida saqlanmoqda.

“Nukat” “Nukta” soʻzning koʻplik shakli boʻlib lugʻatlarda kelganidek, oq narsadagi har bir qora nuqta yoki qora narsadagi har bir oq nuqtadir. Umuman, “nukta” degani biror “bir narsaning nozik jihati” degan maʼnoni anglatib, Zamaxshariy bu asarda Qurʼoni karimdagi suralarning oʻziga xos nozik jihatlarini ochib bergan [8:32].

Asarning qoʻlyozmasida muqaddima qismi mavjud emas. Boʻlimlarga kelsak, ular suralar nomi bilan ataladi. Fotiha surasidan boshlanib, Baqara, Oli Imron, Niso suralari kabi davom etib, Ixlos surasida tugaydi. Orada baʼzi suralar tahlil qilinmagan. Chunki, alloma bu asarda barcha suralarni tahlil qilishni maqsad qilmay, ularning orasidagi eng nozik jihatlariga boy boʻlganlarini tanlab olgan.

Zamaxshariy Fotihadan boshlab suralarni tartib bilan tahlil qilib, Luqmon surasining oxirigacha tartibni buzmagani. Yaʼni Qurʼonning 21-porasiigacha suralarning ayrim nuqtalarini suralarning ketma-ketligini buzmagani holda tadqiq etib borgan. Soʻng Sajda surasini tashlab, Ahzob surasidan Yasin surasigacha tartib bilan tadqiq etishda davom etadi. Soffat va Sod, Zummar, Gʻofir, Fussilat, Shuro suralarini tashlab Zuxruf surasini tahlil etadi. Soʻng Tur surasigacha tadqiq etib, Najm va Qamar suralarini tark etadi. Rahmon va Voqea suralarini taqiq etib, soʻng Hadid, Mujodala, Hashr, Mumtahana, Sof va Jumʼa suralarining tahlilini amalga oshirmaydi. Munofiqunni tahlil qilib, Tagʻobun surasini tashlab, Taloq surasiga oʻtadi. Soʻng Tahrim, Mulk, Qalam, Hoqqa, Maorij va Nuh suralarini tahlil qiladi. Oradagi Jin, Muzzammil, Muddassir suralarini tark etib Qiyomat va Inson suralarini tadqiq qiladi. Mursalat va Nabaʼ suralarini tashlab, Noziotni tahlil qiladi. Abasa va Takvir suralarini tark qilib Infitorni, Mutaffifinni tark etib, Inshiqoqni, Buruj, Toriq, Aʼloni tark etib Gʻoshiyani, Fajr va Baladni tark etib Shams, Layl va Zuhoni, Sharh va Tinni tark etib, Alaqni, Qadr va Bayyinani tark etib, Zalzalani, Adiyat, Qoriaʼ, Takasur, Asr, Humaza, Fiyl va Quraysh suralarini tark etib, Maun surasini, Kavsar, Kafirun, Nasr, Masad suralarini tark etib Ixlos surasini tadqiq etadi. Ixlos surasining tahlili bilan tadqiqni

yakunlaydi. Falaq va Nos suralarini ham tahlil qilmaydi.

Asarda 68 ta sura tahlili kelganligi boʻlimlar soni ham 68 ta ekanligini koʻrsatadi. Bundan maʼlum boʻladiki, Zamaxshariy 64 ta sura haqida biror maʼlumot keltirmagan. Bu narsa alloma mazkur asarda tafsir yozishni emas balki Quroni karimning ayrim suralarining nozik jihatlarini ochib berishni maqsad qilganligini anglatadi. Demak, uning asosiy maqsadi Qurʼoni karimdagi nuqtalarga boy oyatlarni tahlil qilish boʻlgan. Olim tanlab olgan nuqtalar soni 500 ga yetadi.

Zamaxshariy mazkur asarining uchdan biri nahv ilmiga bagʻishlangan. Bu ajablanarli hol emas, albatta. Chunki, asar oʻz nomi bilan “Gʻarib iʼrobi Qurʼon” deb nomlangan boʻlib, unda ayrim koʻp maʼno tushunilishi mumkin boʻlgan oyatlardan asosiy nazarda tutilgan maʼnolarni yanada kengroq ochishga harakat qilingan. Shuningdek, nahv, sarf va lugʻot ilmiga oid masalalar tahlil qilinadi.

Alloma oyatlar tahlilida Sibavayh kabi Basra tilshunoslarining yoʻlini tanlaydi. Qoʻllagan iʼtilohlari ham Basralik tilshunoslar iʼtilohlari desak adashmagan boʻlamiz. Masalan, toʻliq 3 xil kelishidagi turlanmaydigan ismlarga Basraliklar ممنوع من الصرف (“Mamnuʼ mina-s-sarf”) atamasini qoʻllaydi. Koʻfaliklar esa محري (“Mujro”) atamasini ishlatadi. Zamaxshariy ham bunday ismlarni Basraliklar atamasi bilan qoʻllagan.

Allomaning Basraliklarning fikrlaridan koʻproq foydalanganligini Niso surasining tahlilida Basralik nahvshunos Abu Abbos al-Mibrad qarashlarini keltirganidan ham bilish mumkin. Basralik olimlardan Zujaj fikrlari ham keltiriladi. Lekin bu narsa Zamaxshariyning faqat Basraliklar fikrlariga tayangan degan xulosani bermaydi. Chunki baʼzi oʻrinlarda ikkita maktabning ham fikrlari qiyoslanib tahlil qilib oʻtiladi. Masalan, جديد (“jadid”) yaʼni “yangi” soʻzi foil yoki mafʼul maʼnosidami degan savolga Basraliklar foil, koʻfaliklar mafʼul maʼnosida tushunadilar deb izohlab oʻtadi.

Zamaxshariyning mazkur asarni yoritishdagi uslubiga keladigan boʻlsak, bunda taʼlimiy uslubni tanlaganini koʻrishimiz mumkin. Kitobxon bilan suhbat olib borib unga savollar bilan murojaat

qiladi. So'ng barcha savollarga birma-bir javob beradi. Mazkur uslubni "Kashshof" asarida ham uchratish mumkin. Bu uslub juda foydali bo'lib o'quvchining qiziqishi va rag'batini oshiradi. Shu o'rinda asarda keltirilgan nuktadan birini keltirib o'tamiz. Ra'd surasining 41-oyatida shunday deyiladi:

أَوَلَمْ يَرَوْا أَنَّا نَأْتِي الْأَرْضَ نَنْفُصُهَا مِنْ أَطْرَافِهَا ۚ وَاللَّهُ يَحْكُمُ لَا مُعَقَّبَ لِحُكْمِهِ ۖ وَهُوَ سَرِيعُ الْحِسَابِ

(Makka mushrikлари) Biz yer(lari)ga kelib, uni atrofidan qisqartirayotganimizni (fath qilinib kelayotganini) ko'rmadilarmi?! Alloh hukm qilur – Uning hukmini ta'qib etuvchi bo'lmas. U tez hisob(-kitob) qiluvchidir [9:254].

Uning hukmini ta'qib etuvchi bo'lmas jumlasining grammatik o'rni qanday degan savolga quyidagicha javob beradi. Bu jumla hol o'rnida bo'lib xuddi "Alloh hukmini amalga oshiruvchi bo'lgan holda hukm qiladi" – degan ma'noni anglatadi. Xuddi "Zayd boshiga do'ppi ham, salla ham kiymagan holda keldi", deganda uning boshyalang kelgani iroda qilinganidek.

Zamaxshariy ko'p o'rinlarda harflarning nozik jihatlari ochib beradi. Masalan, Yunus surasining 29-oyatida ان va ل harflarini quyidagicha tahlil qiladi:

فَكَفَى بِاللَّهِ شَهِيدًا بَيْنَنَا وَبَيْنَكُمْ إِن كُنَّا عَنْ عِبَادَتِكُمْ لِغَافِلِينَ

Bas Allohning o'zi biz bilan sizlarning "o'rtamizda guvohlikka kifoyadirki, sizlarning (bizga qilgan) ibodatingizdan g'ofil (bexabar) edik" [8:212].

Bu o'rinda ان muxaffaf (yengillatilgan) bo'lib, fe'lga o'xshash harflardan hisoblanadi. ل esa fariqo (ajratib turuvchi) ma'nosida kelib ان va inkorning o'rtasini ajratib turibdi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, "Nukatu-l-i'rob" tafsir yoki Qur'on i'robiga bag'ishlangan kitob emas balki, Zamaxshariy o'zi aytganidek, nuktalar va nodir masalalarga

bag'ishlangan asar desak xato bo'lmaydi. Unda suralarning nozik grammatik jihatlari, ulardagi lug'at, sarf, balog'atga oid masalalar ochib berilgan. Ayrim ehtiyoj sezilgan o'rinlarda fiqhiy va tafsiriy masalalar bayon qilingan. Masalan, Baqara surasidagi 286 ta oyatdan 22 ta nukta, Oli Imron surasidagi 200 ta oyatdan 20 ta nukta, Moida surasining 176 ta oyatidan 35 nukta, Hashr surasining 99 ta oyatidan 4 tagina nuktasi tanlab olingan. Bunday uslubda suralardagi ma'lum nuktalargina tanlab olinishi asarni tafsirga bag'ishlangan asar emasligini yana bir bor isbotlaydi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. –T.: O'zbekiston, 2022. – B. 264.
2. Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy. – T.: Fan nashriyoti, 1971. – B. 3.
3. O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi ensiklopediyasi / Imom Buxoriy xalqaro markazi. Samarqand 2016. – B. 132.
4. O'zbekiston – buyuk allomalar yurti/ Imom Buxoriy xalqaro markazi: tuzuvchi, nashrga tayyorlovchi U.Uvatov. – T.: Ma'naviyat, 2010. – B.
5. Nosirova M. O'rta asrlar arab nahvidan namunalar (Mahmud Zamaxshariyning "al-Unmuzaj fi-n-nahv" risolasi asosida). – T.: ToshDSHI nashriyoti, 2004. – B. 5-6.
6. Saidjalolov S. Mahmud Zamaxshariyning "Ruusul-masoil" asarida hanafiy mazhabi talqini: tarix fanlari bo'yicha PhD dis. ... avtoref. – T.: O'zXIA, 2023. – B. 7.
7. Nosirova M. Tilshunoslik bilimlari tarixi (Arab tilshunosligi) – T.: Navro'z, 2019. – B. 5.
8. محمد ابو الفتوح شريف. نكت الإعراب في غريب الإعراب في القرآن الكريم. – القاهرة: دار المعارف، - 1998. ص. 23.
9. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: TIU, 2016. – B. 212, 254.